ularning o'ziga xosligi yuzasidan to'plangan nazariy va empirik ma'lumotlarga murojaat qilish Boshqaruv psixologiyasi asoslariga muayyan darajada yordam ko'rsatadi. O'zaro munosabat odamlarning xarakter xususiyati, temperament, qobiliyati, maslagi, qiziqishi, muloqotga kirishish uslubidagi moslik orqali yuzaga kiyeladi. Simpatiya, hurmat, do'stlik, guruh a'zolari o'rtasida jipslik va psixologik yaqinlikdan dalolat byeradi, boshqaruv faoliyatini esa takomillashtiradi.

Boshqaruvdagi bunday hamkorlik jarayonini unumli tashkil etish, o'zaro hamjihatlik asosida munosabatlarni tasavvur qila olish va ularni o'zaro muvofiqlashtirish qonuniyatlarini bilish orqali kasbiy malaka va qobiliyatni rivojlantirib borish faoliyatini (xizmatni) muvaffaqiyatli uyushtirish uchun zarur muhim shart-sharoitlar yaratib byeradi.

2 BOB: BOSHQARUV JARAYONIDA SHAXSNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. Boshqaruv jarayonida shaxsni rivojlantirishning pyedagogik – psixologik muammolari.

Insonning rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida har doim ham har tomonlama qulayliklarga ega bo'lgan ijtimoiy muhit o'z holicha yetuk insonlarni tarbiyalay olmaydi. Insonni tarbiyalashda jamiyat tomonidan tashkil etilgan tarbiyalash muassasalarining va tarbiya jarayonida qatnashayotgan barcha kishilarning faoliyatlari muhim rol o'ynaydi. SHaxsning rivojlanishida tarbiyaning bosh vazifasi ijtimoiy muhitni hisobga olgan holda o'quv tarbiyaviy ishlarning vazifalari va maqsadlari yo'lida jamiyat tomonidan inson oldiga qo'yilgan talablarni to'g'ri aks ettirishdan iborat.

Rahbar (boshqaruvchi shaxs) va tobye kishilar (xizmatchilar, xodimlar) psixikasini o'rganishda laboratoriya eksperymenti myetodi muhim rol o'ynaydi. Eksperymentning laboratoriya shakli (ko'rinishi) umumiy psixologiya fanida qanday qo'llanilgan bo'lsa, huddi shu maqsadni o'rganishga o'rganishga xizmat qiladi. Unda farqli o'laroq aksariyat hollarda qiyosiy tavsifini byerishga mo'ljallanadi, natijada o'zaro mutanosiblik (har jihatdan), o'zaro intilish uyg'unligi aniqlanadi. Laboratoriya sharoitida tadqiqot maqsadi qatnashchilariga oshkora qilinadi, fan uchun holis yordam byerish zarurati tushuntiriladi. Laboratoriya eksperymenti ikkita nyegizga suyangan holda tyekshiruv ishini amalga oshiradi; portativ myetodikalar (yangi va mumtoz) va mahsus asboblar (apparaturalar) yordami bilan boshqaruvchi shaxs yoki alohida hodim o'rganiladi. Ushbu myetodikning o'ziga xos tomoni

shundaki, unda vaziyat, mahsus sharoit hotirjamlikka putur yetkazadi, buning oqibatida byezovtalanish, xavotirlanish vujudga kyeladi, olingan natijalar aniqligi sub'yektiv omillar bilan aralashadi, muammoli, sun'iy vaziyatlar tabiiylik alomatlariga salbiy ta'sir o'tkazadi. Laboratoriya sharoitidagi shaxs hadik xis etishi tufayli hayajonlanish oqibatida mavjud ruhiy imkoniyatlarini to'la - to'kis ro'yobga chiqara olmaydi. Lyekin tabiiy eksperymentga qaraganda samaradorligi, ishonchliligi, validliligi, ryeprezyentativligi bilan bir nyecha barobar ustuvorlikka ega.

Laboratoriya sharoitida tyestlar, ishbilarmonlik o'yinlari, boshqotirma topshiriqlar va boshqa tadqiqot shakllari yordami bilan insoning bilish jarayonlari, individual-tipologik xususiyatlari, faoliyat, xulq, muomala sifatleri o'rganiladi. Bunda proyektiv myetodikalar, rasmlil tyestlar, tugallanmagan gap, ijodiy (kryeativ) fikrlash kabi bir qator portativ myetodlarni ishtirokchilarda sinab ko'rish ijobiy natijalar byeradi. Laboratoriya sharoitida syezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarini, shaxsning individual - tipologik xususiyatlarini, asab tizimini, fiziologik myexanizmlarni aniq elyektron asboblar yordami bilan o'lchash mumkin. Bundan tashqari, kasbiy moyillik, kasbiy layoqat, kasbiy yaroqlilik ham asboblar bilan aniq va takroran o'lchash imkoniyatiga ega.

Samarali boshqaruvni amalga oshirish kyeng ko'lamli ishlarni amalga oshirish bilan ko'proq bog'liq bo'lsa-da, lyekin aslida quyidagilarni:

- a) o'z shaxsiy maqsadini aniqlash;
- b) o'zini va o'zgalarni xolisona baholay bilish;
- v) o'z vaqtini to'g'ri taqsimlash;
- g) o'z vaqtida va aynan maqbul qarorlarni qabul qilish;
- d) faol faoliyat ko'rsata olish;
- ye) stryess holatini bartaraf etish;
- j) o'zini o'zi nazorat qilish;

z) mye'yoriy darajada kiyinish va go'zal yashash singari muammolarni hal etish bilan bog'liqdir.

Ta'kidlab o'tilgan individual shaxsiy sifatlarning majmuasi boshqaruv sohasida o'z faoliyatini o'zi boshlagan har bir hodim qobiliyati va mahoratini to'liq namoyon etishiga imkoniyat yaratadi. qolavyersa, har bir alohida olingan xodimning: shaxsiy aniq maqsadining mavjudligi; shaxsiy qadr-qimmatining anglaganligi; o'zgaruvchan, qarama-qarshi, murakkab holatlarni tushuna olish orqali ularni hal etish mahoratiga ega ekanligi; favqulodda va kutilmagan holatlarda yuzaga kyelgan muammolarni hal etish bo'yicha qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshira olish singari sifatlarni namoyon qilish tashkilot faoliyatini samarali yuritishga kyeng imkoniyatlar ochib byeradi.

Tashkiliy faoliyatni yanada samarali uyushtirish uchun undagi psixologik holatning o'rni va roli haqida mulohaza yuritish joiz.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, tashkilotning muvaffaqiyatga erishuvi 85 foiz, unda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning myehnatga nisbatan xohishlariga, shuningdyek, ularning o'zaro munosabatlari va munosib mahoratiga bog'liqdir. Aynan mana shu holatlar psixologiyaga aloqador omillar hisoblanadi.

Ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishda barcha imkoniyatlar to'plangan tajribalar, ishchi va myehnatkashlarning hamda rahbarlarimiznig tafakkuri, ma'naviyati, milliy e'tikodi mamlakat boyligi xisoblanib, shular orkali boshqaruv tizimini olib borish yaxshi natija byeradi. Ijtimoiy faoliyat jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi yurish-turish tamoyillari inson aql-zakovatining yoki boshqacha aytganda tabiiy intyellyektning talablarini kondirish rahbarlar, mutaxassislar, oddiy xodimlar bilan munosabatda bo'lish, bir tizim doirasida faoliyat kursatayotgan odamlar orasida ham ijtimoiy, ham

iqtisodiy, ruhiy tarbiyaviy munosabatlar o‘rnatish kabi muhit bilan qurshovda bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ijtimoiy faoliyatda ahloq, xulq kabi umumiy tushunchalarni ajratib karash urinlidir. Xulq kishining jamiyatda yashab namoyon etadigan, shakllanadigan tushuncha bo‘lib, u kishining yurish turishida, ahloqida, munosabatida, xotirasida, tafakkurida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy ongning bir ko‘rinishidir. Ahloq jamiyatdagi, jamoadagi, oiladagi, yurish-turish tomiyillari yig‘indisi. Ahloq davlat dyeganlari kuvvatlab va kuzatib boradigan xukuk mye’yorlaridan farq qiladi.

Ahloq jamiyatchilik fikriga va ta’siriga, e’tiqod, an’ana va odatga, urf-odatga, kishining o‘z xulq-atvorini boshqarishga tayyorligiga, myehribon va xushmuomalaligiga, ishda hamkasblari bilan madaniyatli muamalarda bulishga, myehnat, ishlab chiqarish, moliya intizomlarini saqlashiga tayanadi. Ahloq kishining og‘ir sharoitda uzini tuta bilishida, buysunuvchilariga topshirik byerayotganda xushmuomala bulishda, kul ostidagilarga nisbatan e’tiborli bulishda, ular muvaffakkiyatini uz vaktida takdirlashida uz ifodasini topadi. O‘zbyekiston Ryepublikasining mustakilligi uning fukarolariga inson erkinligi xukuklaridan foydalanishga kyeng yo‘l ochib byerdi. Ayniksa, ijodkorlarga, ixtirochilarga, aqliy mulk egalariga kulay sharoitlar yaratdi. Ular o‘z aql-zakovat mulkini: ixtirolari, ilmiy kashfiyotlari, tyexnologik yangiliklari, uslubiy ishlanmalarini tovar sifatida erkin sotish imkoniyatiga ega bulishdi. Bu, bir tomondan, xalqimiz ichidan yangi ixtirochilar, ijodkorlarning usib chikishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ma’naviyat, ma’rifat, ilm-fan kabilarning usishiga imkoniyat yaratadi. Bugungi sharoitda boshqarish vazifasi qanchalik murakkabroq, tabaqalashganroq bo‘lgani sari, rahbarlik qilish oldida har qanday vazifa ichida ham vazifalararo yo‘nalishda ham boshqarishni takomillashtira olish vazifasi turadi. Natijada boshqarish vazifasidan asta - syekin boshqarishni takomillashtirishning mustaqil vazifasi

ajralib chikadi- bu vazifa moyillikdir, ya'ni kishilar faoliyatini ruhiy yo'llar bilan maqsadga muvafiklashtirishdir. Bunda xodimni boshqarishning maqsadi samarali va mahsulida sxyemalari uchun ularning kobilyatlarini kyengaytirishdir. Dyemak, moyillik - kishi faoliyatini ma'lum zur byerish yoki kuch bilan majbur etishga, ma'lum xarakat qilishi natijasida va ma'lum darajada qat'iyatlilik, xalollik bilan maqsadlarga erishishga karatilgan kuchlarning hammasidir. Zamonaviy boshqarish ma'rifatli, o'z kasbini kyeng va chuqur egallagan, yuqori ahloq mye'yorlariga amal qilishni talab etadi. Ma'rifat va ahloq orqali kishilarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini, xulqini o'rganish va tashkilot faoliyatida qo'llash katta muvaffakiyatlarga olib kyeladi.

Tashkilot rahbarlari ajoyib ryejalar va ustivorlikni ishlab chiqishi eng maqsadga muvofiq tuzilmani topishi va samarali uzatish tizimini yaratishi va axborotlarga ishlov byerishi tashkilotda eng zamonaviy jihozlar o'rnatishi va zamonaviy tyexnologiyalarni ishlatishi mumkin. Ammo, tashkilot a'zolari kyerakli darajada ishlamasalar o'z vazifasini boshqara olmasalar, jamoada o'zlarini mos ravishda tuta bilmasalar, myehnatlari bilan tashkilot o'z maqsadlariga erishishiga va uning bosh vazifasini bajarilishiga xissa a qo'shishiga intilmasa barcha imkoniyatlarni yukka chiqaradi.

XXI asrga qadam kuyayotgan O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot maorif, fan va madaniyat sohasida xizmat kiluvchi yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga aloxida e’tibor byerilmokda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX syessiyasida "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" va "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunning qabul qilinishi kadrlar tayyorlash, ta’limni zamon talablariga muvofiq isloh qilish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi. Zyero, respublikamizning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy ravnaq topishi, yuksak malakali va har tomonlama shakllangan, milliy kadrlar tayyorlanishiga bog‘liq. Xayotimizga biznyes, tadbirkorlik, markyeting, myenyejmyent kabi tushunchalar ko‘proq kirib borayotgan bir vaqtda oliy o‘quv yurtlarining bitiruvchilari yuksak kasb maxoratiga ega bo‘lishi bilan bir vaqtda o‘z atrofidagi shaxs psixologiyasini yaxshi bilishi hamda ijtimoiy psixologiya asoslari va myenyejmyent sohasini yaxshi tushunib olishlari kyerak.

Odam – individ tug‘ilishi bilan o‘zida insoniy, shaxsiy xislatlarni shakllantira boshlaydi. Ikki va undan ortiq insonlar bilan munosabatda, muloqotda bo‘lgan har qanday odamda shaxsiy xislatlar paydo bo‘ladi. Dyemak, har bir tug‘ilgan inson individi – odam. Shaxsiy xislatlarga ega bo‘lgan inson endi shaxsga aylana boshlaydi va aylanadi ham. Shaxslar odamlar taqdirini o‘zgartira olish doirasiga, hajmiga qarab oddiy va buyuk shaxslarga bo‘linadi.

Shaxsning kamolotga erishish ya’ni rivojlanish jarayoni murakkab jarayon bo‘lib shaxsning ichki ta’siri va shaxsga ta’sir etuvchi tashqi omillar inson tomonidan boshqarilishi mumkin va unga umuman bog‘liq bo‘lmasligi mumkin.

Shaxsning rivojlanishi avvalo unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan boshlanadi. Rivojlanish o‘zida shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa xislatlarining takomilini namoyon etadigan jarayon bo‘lib, bunday

xislatlarning tugʻma, baʼzilari kyeyinchalik erishilgan boʻladi. Inson rivojlanishidagi sifat oʻzgarishlari tub mohiyatiga koʻra biologik turning vakili xususiyatlariga ega boʻlgan odam, biologik individdan to insoniy jamiyatning aʼzosi – shaxs darajasiga koʻtarilishini byelgilab byeradi. Rivojlanish – bu odamning ruhiyati va organizmidagi sifatliy oʻzgarishlardir. Bu oʻzgarishlar ijtimoiy muhit, uy-joy sharoitlari, uni qurshab turgan kishilarning taʼsiri natijasida yuz byeradi. Albatta, rivojlanish jarayoniga myehnat faoliyati, oʻyinga, ichki faollikka oʻquv mohiyati faoliyati jalb etiladi. Bunday faoliyat turlari shaxsning hayotiy tajribasini boyitadi, ijtimoiy aloqa, muloqot koʻnikmalarini egallashga koʻmaklashadi.

Inson rivojlanishini harakatga kyeltiruvchi kuchlar inson ehtiyojlarining taʼsirida yuz byeradigan obʼyektiv omillar bilan yaʼni, oddiy jismoniy, moddiy ehtiyojdan boshlab, oliy maʼnaviy ehtiyojlarga qadar boʻlgan ehtiyojlar bilan ularni qanoatlantirishning imkoniyatlari va vositalari orasidagi qarama-qarshilikdir. Bunday ehtiyojlardan u yoki bu faoliyatining sabablarini vujudgv kyeltiradi. Oʻzining ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun vositalar va manbalar qidirishga, kishilar bilan muloqot qilishga undaydi. Inson koʻp sonli oʻzaro aloqalar oʻrnatish davomida uning ijtimoiy sifatlari shakllanib boradi. Albatta, vorisiylik bilan bir qatorda inson rivojlanishi uchun ijtimoiy muhit alohida oʻrin tutadi. Ikki yonma-yon va bir-biridan mustaqil boʻlgan ijtimoiy hamda biologik omillar inson rivojlanishiga taʼsir eta borib har xil munosabatlarga kirishadilar. Bunday oʻzaro taʼsirlardan samaraliroq foydalanishi maqsadga yoʻnaltirilgan tarbiyaviy taʼsirining muvaffaqiyatli boʻlishiga yordam byeradi. Pyedagogik muhit va tarbiyaning odam rivojlanishiga, uni shaxs sifatida shakllanishida tutgan oʻrni toʻlaligicha oʻrganishga qaratilgan.

Ota-onadan tugʻma xislatlar, inson organizmining oʻziga xosligi uning gyenyetik kodida yashirilgan boʻladi, yaʼni inson jinsining oʻziga xosligi

haqida ma'lumot byerishini saqlovchi gyenyetik kod mavjud bo'ladi. Bunday kodning mavjud bo'lishi inson naslining davomiyligini ta'minlab byeradi hamda inson organizmi mavjud bo'lishligining o'zgargan shart-sharoitlarini muvofiqlashuviga yordam byeruvchi sistyemalalarni rivojlantiradi. Tug'ma xislatlar, inson organizmi anatomo-fiziologik tarkibiy tuzilishga ega. Undan tashqari inson organizmining o'ziga xos xaraktyeri, ko'zining, sochining rangi, qaddi-qomati, so'zoashi, tik holda yurish, fikrlash va myehnat qilish qobiliyatlari kabi bir qator xususiyatlar tug'ma qobiliyatga kiradi.

Boshqaruv tushunchasi tobora xayotimizga kyengrok kirib borar ekan, Oliy o'quv yurtlaridagi ta'limning asosiy vazifalaridan biriga talabalarning ijtimoiy psixologiya asoslari bo'lgan boshqaruv psixologiyasi haqida tularok tushuncha byerish lozim. Nyegaki ishlab chiqarishni tashkil qilish, unga rahbarlik qilish myenyedjyerlarning asosiy vazifasi xisoblanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, xar bir etuk mutaxassis yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga hamda odamlar bilan muloqotga kirishimlilik fazilatiga ega bulishi lozim.

- Rahbar kadrlarni tanlash ularni tarbiyalash va lavozimlarga joylashtirish;
- Psixologik jihatdan tanlash bo'yicha kadrlarni maxsus myetodlar va myetodikalar bilan qurollantirish;
- Faoliyatning profyessiogrammaviy tahlilidan kyelib chiqqan holda rahbar kadrlarni tayyorlash va ularni qayta tayyorlash maqsadida yangi tizim yaratish hamda uni uzluksiz ravishda takomillashtirish;
- Ta'limiy axborot ko'lamini ilmiy jihatdan aniqlashdan kyelib chiqqan holda o'quv dasturini tuzish rahbarlarni tuzish mazmunining har bir bo'g'ini uchun muayyan myezonlar ishlab chiqish;

- Boshqarish malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik tabiatidan o‘quv kurslarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kyelib chiqib ta’limning uslubiy tizimini yaratish;
- Kasb mohiyatiga asoslanib, rahbarlik lavozimiga o‘qilayotgan shaxslarni psixologik tayyorlashning myetodlari shakllari, vositalari myetodikalarini va printsiplarini takomillashtirish;

Rahbar lavozimiga tayyorlanuvchi shaxslar dastavval ularning oldilariga qo‘yiladigan talablar bilan tanishishi va o‘zidagi mukammallik zaifliklari yuzasidan qat’iy qarorga kyelishi lozim. Bu mulohazalarning zaifliklari yuzasidan qat’iy qarorga kyelishi lozim.

Rahbar psixikasiga lavozim taqozo etuvchi talablar o‘z ichiga uch xil turkumga taalluqli jabhalarni qamrab oladi: bilimga doir, emotsional his-tuyg‘u irodaviy fazilatlar. Bilishga va bilish jarayoniga aloqador talablar quyidagilardan iborat:

- Diqqat xususiyatlarining egallaganlik darajasi;
- Syezgi va idrokni yuksak darajasiga erishganlik;
- Tasavvuf obprazlari, vaqtni payqash o‘quvchanligi;
- Tasavvur obrazlari va ijodiy xayolga moyillik;
- Xotiraning mustahkamligi, barqarorlik puxtaligi va ko‘laming kyengligi mantiqiyli, tyezkorligi va mazmundorligi;
- Nutq, nutq faoliyati va nutq qobiliyatining mazmundorligi;
- Nutq, nutq faoliyati va nutq faoliyatining ko‘rsatkichi;
- Fikrlash, muhofaza yuritish faoliyatining syermazmunligi samaradorligi, tyeranligi, ijodiyli, topqirligi nostandartligi.

Rahbar kadr uchun ematsional holatlar va his – tuyg‘ularni oqilona boshqaruv uquviga ega bo‘lish har qanday vaziyatda ham o‘zini – o‘zi boshqarish o‘zga kishilarning kyechinmalarini his eta olish.

Emotsional holatlarga o'z munosabatini bildirish, ryeaktsiyaga kirisha olish bu narsalarga loqayd bo'lmaslik, yumor hissining mavjudligi hamisha muayyan myezonga rioya qilgan holda tobye kishilar bilan munosabat muomalaga rioya qilish;

- hissiyotning qonuniyatlarini egallash va jamoaning boshqariluv tuyg'usini oldindan aniqlash ularga asoslanib a'zolari bilan munosabatiga kirishishi zarurat tug'lganda tyezkor qaror qabul qilish.

Emotsional holatlarga baho byerish va ularning har birini tahlili qilish imkoniyati

- Rahbar kayfiyatini aniqlovchi omillarning barqarorligi.

Emotsional ryeaktsiyalar ifodalashishining tashqi vositalari,

Emotsional barqarorlik rahbar shaxsining xislatini ekanligi,

Rahbarlik faoliyati va rahbar shaxsi uchun idoraviy sifatlar juda muhim ahamiyatga ega, uni boshqarish esa psixologik to'siqlar vaziyatlar, nizom holatlarni yengish manbai bo'lib hisoblanadi.

Rahbar kadrning nufuzi barqaror iroda sub'yekti ekanligini har qaysi harakat va faoliyatda namoyish qilishda o'z ifodasini topadi.

Shaxslararo munosabatda ishq tuyg'uni vujudga kyeltiradi, insonni inson tomonidan to'g'ri idrok qilishga sharoit tug'diradi, individual uslubni shakllantiradi, obro' – e'tibor ma'naviy boylik bo'limidan tashqari ishlab chiqarish samaradorligining omili, iliq psixologik muhitning myexanizmi hisoblanadi. Shaxsning irodasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Irodaviy kuch – quvvatning mujassamlashuvi;
- Boshqaruv faoliyatining mashaqqatlari maqsadga intilish va sobitqadamlilik;
- Tashabbus, mustaqillik ijodiylik;
- Dadillik jasoratlik to'siqlarni pisand qilmaslik;
- Sabotlilik, qat'iylik printsipiiallik;

- Vazminlik esankiramaslik o'zini qo'lga ola boshlashlik;
- Intizomlik o'zini o'zi uddalash o'ziga o'zi buyruq byerish;
- O'z kuchiga ishonch, o'zini qila olishlik va boshqalar.

Ma'lumki boshqaruv jarayoni uchun ijrochilikning psixologik xususiyatlari va ularning o'ziga xosligi muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu boisdan jamoa guruh va ularning a'zolari yuzasidan muayyan darajadagi psixologik ma'lumotlilik faoliyat va muomalali tashkil qilish, uyushtirish muloqotga kirishishi voqyelikga tortilganlik masalalarni e'tiborga olish boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlaydi.

Rahbarning psixologik savodxonligi har qaysi alohida xususiyat, vaziyat, holat, ziddiyat, shaxs qarshiligi, munosabat muammo yechimiga oqilona va omilkorlik bilan individual yoki diffyeryentsial yondashishni amaliyotga tatbiq etishga kyeng ko'lamli imkoniyat puxta shart – sharoit shaxsiy uslub vujudga kyelishiga nyegiz yaratadi. Binobarin rahbar xodimlarning individual tipologik xususiyatlari bo'yicha psixologik bilimlar bilan qanoat hosil qilmasdan, balki ijtimoiy psixologik holatlar, qonuniyatlar, hodisalar rivoji, ularni kyeltirib chiqaruvchi omillar harakatlanuvchi myexanizmlar ijtimoiy muammolarning yechimi jarayonda qat'iy qabul qilish va uni bajarilishi bosqichlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qo'llanilishi lozim. Aks holda jamoa guruh singari mikrotuzilmalarni boshqarishda psixologik muhitni barqarorlashtirida shaxslararo munosabatlarni to'g'ri tashkil qilishda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda odamlar o'rtasida o'zaro ta'sir, ta'sirlanish, taassurot o'zaro tushunish hamdardlik kabi murakkab kyechinmalarkuchi davomiyligini anglab yetishda nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'yiladi.

2.2. Boshqaruv muloqotining psixologik qonunlari.

Boshqaruv muloqoti -bu odamlarga rahbarlik qilish maqsadidagi muloqot, ya'ni ular faoliyatini ma'lum yunalishda uzgartirish yoki kyerakli yunalishda tashkil qilishdir. Rahbar boshqaruv muloqotida o'z qo'l ostidagilar bilan quyidagi munosabatlarda bo'ladi.

- 1) buyruq byerish, nimanidir tavsiya qilish, maslaxat byerish;
- 2) bajarilgan ish haqida o'z qo'l ostidagilardan axborot olish;
- 3) qo'l ostidagilarning byerilgan topshirikni bajarishlarini baxolash.

Buyruk byerish, topshiriq ijrosini tyekshirish, hamda baholash, bu boshqaruv faoliyatining uch boskichi bo'lib, boshqaruv muloqotining uchta vazifasini aks ettiradi. Buyuruvchi axborot byerish, tyeskari aloqa olish va baxolov axborotini byerish. Albatta rahbarlik faoliyati bu uchta vazifa bilangina chyegaralanmaydi, lyekin boshqaruv muloqotida ular yotakchilik qiladi. Yuqoridagi uchta vazifa ichida buyuruv axboroti byerish vazifasi rahbarlik faoliyatida muhim o'rin tutadi. O'z qo'l ostidagilar bilan boshqaruv muloqotini samarali olib borish qanday amalga oshiriladi?

Samarali muloqot bu - kam vakt va enyergiya sarf qilish, bu boshqalar sizning topshiriklaringizni sidkidildan bajarishi, bu psixologiya fanini chuqur bilish dyemakdir. SHuning uchun boshqaruv muloqotining psixologik qonunlarini kurib chikishimiz maqsadga muvofiqdir.

O'zaro tushunish qonunlari. Siz rahbarlik qilayotgan xizmatchilar o'zlaridan nima talab kilinayotganini tushunib yotmasalar, byerilgan topshirikni kungildagidyek bajara olmaydilar. Rahbar topshiriqni qo'l ostidagilarga tushunarli tarzda yetkaza olishi zarur. Ba'zi bir xodimlarga bir ogiz so'z kifoya, ba'zilariga esa uzoq tushuntirishga to'g'ri kyeladi. Rahbar o'z xodimlari bilan shunday til topishishi kyerakki, ular sizni faqat tinglamasinlar, balki eshitsinlar.

Anglash - eshitish organlarini ishga solish, eshitish - uz diqqatini jalb qilish, miyani ishga solish. Miyani ishga solish - byerilgan topshirikni samarali bajarishdan muhim ahamiyatga ega.

Xizmatchilar o'z boshliqlarini yaxshi tushunishlarida quyidagi 5 ta shart asosiy omil xisoblanadi:

- kasbning birligi;
- intyellyekt darajasini hisobga olish;
- axborotning tulaqonliligi;
- bayon etishning mantiqqa muvofiqligi;
- diqqatning jamlanishi.

Tushunish - gapirayotgan odamning so'z oxangiga bog'liq. Agar topshirik byerayotganda kul ostidagilarning tushunmayotganligi doimo ta'kidlab turilsa, ko'pol oxangda gapirilsa, bunday rahbarni tushunish kiyin. Bu holda tinglayotgan odamning diqqati topshirikning mazmuniga emas, balki, gapirayotgan odamning muomalasiga, uzini tutishiga jamlanadi. Bunday sharoitda tinglovchida "Agar siz xotirjam gapirsangiz, yaxshirok tushungan bular edim" dyegan fikr tugilishi tabiiy. Tinglovchi rahbarga hyech narsa dyemagan holda ham, uni ko'prok tushunishlarini xoxlashi aniq.

Qo'l ostidagilar o'z rahbarlarini tushunganlarida ham, byerilgan vazifalarini tula bajaravyermaydilar. Masalan, aytaylik, kul ostidagi odamlar ishga uz vaktida kyelish, yaxshi ishlash, ish vaktida boshqa ishlar bilan shugullanmaslik, topshirikni o'z vaqtida bajarish kyerakligini yaxshi bilishadi. Shunga qaramay, har doim ham bunga amal qilavyermaydilar. Dyemakki, xodimlar rahbarni tushunsalar ham har doim u bilan kyelisha olmaydilar. Xodim o'z rahbarining topshirigini faqatgina ichki e'tikodlariga muvofiq kyelgandagina, ya'ni topshirikni bajarish zarurligini qalban xis kilganidagina, uni astoydil bajariga kirishadi.

Har qanday sharoitda ham odamlar o'zlariga yoqqan odamlar bilan muloqotga tyez kirishadilar, aksincha, o'zlariga yoqmagan odamlar nuqtai nazardan kyelishishlari qiyin. Bu "qonun" insonning o'z hayotidan, tabiatidan uning psixologiyasining xususiyatlaridan kyelib chiqadi. Inson uchun ma'naviy iqlim tabiiy jism iqlimidan ko'ra muhimroqdir. Bu omilni qanday boshqarish, rahbarlik xizmatiga jalb qilish, rahbarlik muloqotida uni qo'llash, yo'l-yo'riqlari haqida ko'prok gap boradi. Hyech qanday dushmanlarsiz, ko'ngli qora kishilarsiz ham ishlash, yashash mumkinmi? Xayot bu savolga ijobiy javob byeradi. Bunga qanday erishish mumkinligini shunday odamlar faoliyatini tahlil qilish asosida ko'rish mumkin. Bunday kishilar muloqot jarayonida attraktsiya yo'llarini qo'llab, kishilarni o'zlariga moyil qila oladilar. Biz ham mana shunday attraktsiya yo'llari haqida so'z yuritishni o'z oldimizga maqsad qilib quydik.

II. Qo'l ostidagi xodimlarni o'ziga moyil qilishning psixologik yo'llari.

Xodimlarni o'ziga moyil qilish yo'llari attraktsiya dyeb ataladi.

Biror odam bilan suhbatlashganda syezgi organizmlarimizga (kurish, eshitish, xid bilish va x.k.) undan ko'plab xabarlar kyelib turadi. Lyekin insonlar bu xabarlarning hammasini ham ongli ravishda qabul qila olmaydilar. Masalan faol suhbat jarayonidan so'ng sizdan bir daqiqaga ko'zingizni yumib, suhbatdoshingizning galstugi qanday rangda ekanligini aytib byerishni so'rasalar, siz har doim ham to'g'ri javob byera olmaysiz. Dyemakki, biz ko'rib turib, ko'rmasligimiz mumkin, tinglab turib, eshitmasligimiz mumkin ekan, bu ongimizning qanday ishlashiga bog'liq. Shu bilan birga insonda hissiy ahamiyatga ega bo'lgan xabarlar saqlanib qoladi. Agar muloqot jarayonida suhbatdoshga axborotni shunday yuborilsa, birinchidan - bu xabar suhbatdosh uchun hissiy ahamiyat kasb etsa, ikkinchidan, bu unga ijobiy ta'sir etsa, uchinchidan esa bu xabarni suhbatdosh anglab yetmasa, u holda suhbatdoshimiz, bu suhbat nimasi bilandir yoqimli, uziga tortuvchi bo'ldi,

dyeb ta'kidlash mumkin. Dyemak, bunday holda suhbatdoshingizda o'zingizga nisbatan hissiy ijobiy munosabat uyg'otishingiz mumkin. Bu hislat rahbar uchun eng zarur, eng muhim hisoblanadi.

"Ism-sharifi" usuli. Bu usul siz muloqotga kirishayotgan odamning ismi sharifini aytishdan boshlanadi. Uz ismini boshqalardan tulik eshitish inson uchun hamisha xush yoqadi. Amyerikalik psixolog D.Karnyegi yozganidye, o'z ismini boshqalardan eshitish inson uchun yoqimli musiqaga o'xshaydi. Bu usulning psixologik myexanizmlari quyidagicha:

1. Insonga byerilgan ism hamisha u bilan yonma-yon. Ism shaxs bilan bo'linmas.
2. Agar insonga uning ismini aytmay murojaat qilinsa, bu unga nisbatan faqat xizmat yuzasidan murojaat qilinayotganini bildiradi. Agar insonga ismini aytib murojaat qilsangiz, unga nisbatan e'tibor byerilganini bildiradi.
3. Ismini aytib chaqirish, bu insonning shaxs sifatida tan olishdir.
4. Inson shaxs ekanligini his qilsa, unda albatta qoniqish hissi uyg'onadi.
5. Qoniqish hissiyoti esa doimo ijobiy hissiyotlarga bog'liq.
6. Inson doimo kimgadir yokishga intiladi, kimdir unga nisbatan yaxshi munosabatda bulishini xoxlaydi.
7. Agar kimdir bizga ijobiy hissiyot uyg'otsa, u uziga tortadi, va u bilan yakindan muloqot qilishni xoxlaymiz.

"Ism-sharif" usuli ta'siri psixologik myexanizmining mohiyati quyidagicha: o'z ismining jaranglashi - shaxsga e'tibor - shaxs sifatida tan olish - qoniqish hissi - ijobiy hissiyotlar manbaiga yaqinlashish. Dyemak, ertalab ishga kyelgan zaxoti o'z qo'l ostingizdagi xodimlarning ismini aytib, "Assalomu-alaykum", - dyeb salomlashing, xodimingiz xohlasa, xohlamasa, unda ijobiy hissiyot uyg'otasiz. Endi rahbarning kasbiy qoidasini kyeltirib chiqaramiz. "Myen xar bir rahbar uchun qo'l ostidagi xodimlarida uziga nisbatan moyillik

uygʻotish kasbiy zarurat dyeb bilaman. SHuning uchun tyez-tyez ularga ism shariflarini aytib murojaat kilaman."

"Munosabat oynasi" usuli. Xalqimizda "qiyofa, yuz-qalb oynasi", - dyegan naql bor. Bundan yuz, qarash - munosabatlar oynasi dyegan xulosani ham chiqarish mumkin. Agar insonga sinchiklab qaralsa, uning yuz - qarashida ichki dunyosini qurish mumkin. Savol tugʻilishi tabiiy: doimo kulib yurgan odam bilan muloqot qilish osomni yoki aksincha, qiyofasi qattiq odam bilanmi? Tabiiyki, birinchi toifadagi odamlar bilan suhbatlashish oson. Inson kimlarga jilmayadi: doʻstlarigami yoki yoqmagan odamlargami?

Bu myexanizm qismlari quyidagilardan iborat.

1. Koʻpchilik odamlar oʻz doʻstlariga yoqimli samimiy jilmayadilar.
2. Agar siz bilan muloqot qilayotgan odamning yuz qiyofasi yoqimli jilmayishini kursangiz, bilingki bu uning sizga nisbatan "Myen Sizning doʻstingizman" - dyeb byerayotgan xabari boʻladi.
3. Doʻst - biror bir masalada, ishda siz bilan hamfikir odam.
4. Insonning eng muhim ehtiyejlaridan biri, ximoyalanish va byexavotirlik extiyejidir. Doʻst - bu ximoyalanishni oshiruvchi inson, yaʼni shaxsning eng muhim extiyejlarini kondirishga yordam byeradi.
5. Qoniqish hissi insonga ijobiy hissiyot uygʻotadi.
6. Inson doimo uzida ijobiy hissiyot uygʻotuvchi odamlarga muhtoj.
7. Agar biror kimsa, ijobiy hissiyot uygʻotsa u xoxlasa, xoxlamasa attarktsiyani shakllantiradi. "Munosabatlar oynasi" usulini psixologik myexanizmi ana shundan iborat.

Xulosa: rahbar qoʻli ostidagi xodimlariga oʻz tutgan yoʻlini faqat tushuntirishi emas, balki bu bilan hamfikir boʻlib, uning nuqtai nazarini qalban xis qilishlariga erishgan boʻlishni xohlasa, u insonlar psixologiyasi haqida bilimlarini doimo boyitib borishi zarur.

Rahbarlikning kasbiy qoidasining ikkinchisi quyidagicha. "Rahbar uchun o'z qo'l ostidagi xodimlarini o'ziga jalb qilish kasbiy zarurat. Shuning uchun o'z xodimlari bilan bo'lgan munosabatlarda yuz qiyofasi doimo muloyim bo'lishi, ularga jilmayib murojaat qilishi lozim".

"Oltin so'zlar" usuli. "Oltin so'zlar" iborasining sinonimi sifatida ko'pincha "chiroyli", "ta'sirchan", "juda qimmatli" so'zlar ishlatiladi, bir so'z bilan aytganda bular komplimyent dyeb yuritiladi. Komplimyent - bu insonning ijobiy sifatlarini bir oz kuchaytirib aytiladigan so'zlardir. SHu bilan birga rahbar va xodimlar o'rtasidagi xizmat munosabatlarida attraktsiyani shakllantirish yo'llaridan biridir. Inson o'ziga qaratilgan komplimyentni eshitganda unda ijobiy hissiyot uyg'onadi. Bunday "oltin so'zlar" ta'sirining psixologik myexanizmi qanday? Agar kimgadir "Siz uzingiz aqllisizku", "Siz kuchlisiz", "Siz odamlarga juda yaxshi ta'sir ko'rsata olasiz!" dyeb ta'kidlab tursangiz, agar bu hislatlar unda bo'lmasa ham u odam o'zining bu "qobiliyatini" yuzaga chiqarish, o'zini sizga ko'rsatishga harakat qiladi. Komplimyent ta'sir myexanizmi asosida ishontirish psixologik myexanizmi yotadi. Ma'lumki, insonga orzularining ruyobga chikishini ishontirish mumkin. Ishontirish bu orzularining sirdan amalga oshishiga ishonishini orttira, bu asosiy ijobiy emotsiyalarining hosil bo'lishiga olib kyeladi.

Attraktsiyaning shakllanishiga "oltin so'zlar" ta'sirining psixologik myexanizmi quyidagicha.

1. Insonga o'zining ijobiy sifatlarini kuchaytiribroq aytilgan so'zlar, ya'ni komplimyent doimo yoqimli bo'ladi.
2. Agar komplimyent qoidasi bilan aytilsa (bu haqda quyida so'z yuritiladi) ishontirish natija byeradi.
3. Buning natijasida "yaxshiroq" ko'rinishga bo'lgan ehtiyoj sirdan qondiriladi.
4. Ehtiyojlarning kondirilishi natijasida ijobiy xislar hosil bo'ladi.

5. Rahbar o'ziga nisbatan o'z qo'l ostidagi xodimlarida ijobiy hissiyotlar - attraktsiya uyg'ota olgan ekan, xodimlar o'z rahbarlarining topshiriqlarini bajonidil bajaradilar.

Komplimyent qilishning psixologik qoidalari:

1. Komplimyent insonning faqat ijobiy sifatlarini aks ettirishi lozim, komplimyentda takror ma'no bo'lmasligi kyerak.
2. Komplimyentda aks etadigan ijobiy sifatlar biroz bo'rttiribroq ko'rsatilishi kyerak.
3. Bye'mani iboralar ishlatmaslik kyerak. Aks holda komplimyent salbiy oqibatlariga olib kyelishi mumkin.
4. Komplimyent tavsiyanomadan iborat bo'lishi kyerak emas, insonning sifatlarini tavsiflashi kyerak. Masalan "faolroq, mustahkam bo'lishing kyerak!". "O'z mavqyeingda mustahkam tur!" dyeb tavsiya byerilsa, bu salbiy ta'sir ko'rsatadi.
5. Komplimyent hyech qanday hazil-mazahsiz ishlatilishi kyerak. Misol uchun: "Syening qo'llaring oltin, tiling esa syening dushmaning!" Bunday ta'na salbiy ta'sir qiladi. Quyida rahbarlik faoliyatida uchrab turadigan, ayrim vaziyatlarda ishlatiladigan komplimyentlarga misollar kyeltiramiz.

VAZIYAT	KOMPLIMYeNT
1. Uzoq davom etgan suhbatdan so'ng	1. Sizday yoqimtoy odam bilan tyez-tyez suhbatlashib turish kyerak
2. Nizoli vaziyatda uzini tuta olgan odamga	2. Sizning uzingizni tuta olishingiz, myeni qoyil qoldirdi
3. Kasaldan turgan odamga	3. Ko'riningiz yomon emas, yaxshisiz
4. Har qanday qiyinchilikka	4. Irodangizga qoyil qolish

qaramay, ishni oxirigacha yetkazgan odamga	kyerak
5. Suhbat muvaffaqiyatli tugadi	5. Siz bilan suhbatlashish juda maroqli
6. Sizning ko‘zingizni ochib ko‘ygan odamga	6. Siz bilan suhbatlashib, ko‘p narsani bilib olish mumkin
7. Bir marta muvaffaqiyat qozonib, uzi ham xayron bulayotgan xodimga	7. Siz kamtarlik qilyapsiz, sizning qobiliyatingiz myenga ma'lum

Rahbarlik kasbiy qoidasi: "myen xar qanday rahbar uchun kul ostidagi hodimlarni o‘ziga moyil qilish - kasbiy zarurat ekanligini yaxshi bilaman, shuning uchun o‘z hodimlarim bilan muloqotga ko‘proq kompliment ishlatishga harakat qilaman".

"Sabr-toqatli tinglovchi" usuli. "O‘z xodimlariga e‘tiborli bo‘lish kyerak!" "Ularni sabr bilan tinglash kyerak!" "Suhbatdoshingizning so‘zini bo‘lmay, uni oxirigacha tinglang!" har bir rahbar bu qoidalariga amal qilishi zarur. Hodimlarni diqqat bilan tinglash uchun vaqt kyerak. Zyero, har kim o‘z fikrini aniq qisqa ifoda qila olmaydi. Rahbar har qancha zarur ishi bo‘lsa ham, o‘z hodimini tinglashi zarurmi?

Hodimingiz muammolarini diqqat bilan tinglasangiz, unda o‘zingizga nisbatan ijobiy hissiyotlar uyg‘otasiz. Bu usulning psixologik myexanizmlari quyidagicha. Dastlab - rahbar uz muammolari bilan murojaat qilgan hodimni diqqat bilan yaxshilab eshitishi kyerak. Bu qoida odamning eng muhim extiyejlaridan biridir. Bu extiyejning qondirilishi ijobiy hissiyotlarini shakllantiradi. Bu holda rahbarning yana bir kasbiy qoidasi quyidagicha: "Myen har bir rahbar uchun o‘z hodimini o‘ziga jalb qilish - kasbiy zarurat

dyeb bilaman, shuning uchun o'z hodimlarim bilan muloqotda sabrli va e'tiborli tinglovchi bo'lishga harakat qilaman".

III. Suhbatdoshni tinglash qoidalari. Tinglashga o'rganmagan odamlar kam axborot oladilar va ko'pincha noto'g'ri xulosa chiqaradilar. Tinglash - bu og'ir mashaqqat. Tinglash - bu diqqat va qiziqish bilan axborot almashish, tushunishga erishish, suhbat chogida erkin vaziyat yaratish. Tinglash - bu faol jarayon bo'lib, ma'lum kunikma va malakani talab qiladi. Quyidagi rahbarlar uchun o'z hodimlarini tinglash qoidalarini kyeltiramiz.

1. So'zlayotgan odamga ochik, ravon so'zlashish uchun imkoniyat yaratib byering. "Xa, myen sizni eshityapman, tushundim va x.k." Suhbat chogida sizning diqqat bilan tinglashingiz boshqalarni tushuna olishingizni bildiradi.
2. Muloqot chohida suhbatdoshingizni tushunishga harakat qiling. Eshitganlaringizdan darrov xulosa chiqarmang.
3. Suhbatdoshingizga hamdard bo'ling. Uning o'rniga o'zingizni qo'yib qo'ring va o'ning muammolarini o'zingiznikiday qilib qo'ring. Bu esa o'ning nutkini chuqurroq bo'lishiga imkoniyat yaratadi.
4. Sabrli bo'ling, dam-badam soatga karayvyermang, suhbatdoshingizni so'zini bo'lmang. Suhbat chog'o'ida o'z ishlaringiz bilan band bo'lmang - har xil kog'ozlarni titkilamang, tyelyefonda gaplashmang va h.k.
5. Suhbat mavzuidan chyetga chiqishga urinmang. Gapirayotgan odamning turli sifatlarini muhokama qilmang. Agar hodim sizga yokmasa ham uni diqqat bilan eshiting.
6. Suhbatdoshingizga savol byerib, uning muammolarini to'g'ri tushunganingizni tasdiqlatib oling: "Myen sizni to'g'ri tushundimmi?".
7. Suhbat davomida muloyim jilmayib, suhbatdoshingizning ko'ziga qarab turing.
8. So'zini diqqat bilan tinglaganingizni albatta ta'kidlab turing: "Myenimcha sizni shunday muammolar qiynayapti?".

9. Eshitayotgan soʻzlaringiz sizda nafrat uygʻotsa ham oʻzingizni tuta biling. Bilingki aks holda suhbatdoshingiz sizga ishonmay qoʻyadi.

10. Suhbat davomida suhbatdoshingiz oʻz soʻzini tugatmaguncha jim oʻtirganingiz maʼkul.

Ish suhbatlarini qanday oʻtkazish kyerak? Ish yuzasidan boʻladigan suhbat oʻtkazish ham bir sanʼat. Buning uchun quyidagi qoidalarga amal qilish kyerak.

1. Avvalo bir nyecha savolga javob topib koʻying:

- suhbatdan oʻzimga qanday maqsad kuyaman?
- bu mavzuda suhbatlashishga suhbatdoshim qay darajada tayyor?
- qanday savollar byerish mumkin?
- myenga qanday savollar byerilishi mumkin?
- suhbat natijasi qanday tugaydi?

2. Faqat oʻzingiz yaxshi tushunadigan mavzu yuzasidan suhbatlashing.

3. Oldindan suhbatdoshlaringiz yoshi, jinsini, kizikishlarini yaxshi bilib oling.

4. Oʻz nutqingizini mantiqiy aniq, loʻnda ifodalashga harakat qiling.

5. Oʻz nutqingizda misollardan foydalaning,,lyekin ularni koʻpaytirmang.

6. Tyez-tyez atrofdagilarga koʻz qiringizni tashlab turing. Kim sizni tinglayapti, kim tinglamayapti, yaxshi bilib olasiz.

7. Oʻz nutqingizni faqat zarur ishoralar bilan mustaxkamlang.

8. Nutqingizni lahzalik taʼsirchan soʻzlar bilan yakunlang. Lyekin "eʼtiboringiz uchun raxmat" kabi iboralarni ishlatmang.

Suhbatda doimo suhbatdoshingizga "Siz" dyeb murojaat qiling. SHunda suhbatdosh soʻzi bilan sizni yakinlashtirib orangizdagi farqni kamaytiradi va suhbat erkin vaziyatda kyechishini taʼminlaydi. Bu bilan siz oʻzingizni suhbatdoshingiz oʻrniga qoʻyishingiz va uning muammolarini yechishingiz osonlashadi. Dyemak, ish yuzasidan boʻladigan suhbatlarda quyidagi qoidalarga amal qilish kyerak.

Ish yuzasidan suhbatdagi mumkin xatti- harakatlar	Mumkin bo'lmagan harakatlar
1. Faoliyatni tasvirlash	1. Faoliyatni baxolash
2. Muammoni ko'rib, uni yechish yo'llarini qidirish	2. Muammoda insonning aybini topish
3. Epchil bo'lish	3. To'g'ri so'z bo'lish
4. Tinch xotirjam bo'lib, hissiyotlarini jilovlash	4. O'zini katta tutish, yoki pastga olish, hissiyotlarga erkin byerish
5. Turli yo'llar qidirish, ularni taklif qilish	5. Dastlabki yo'lni qabul qilish
6. Insonning qiyofasini o'kiy olish kyerak	6. Suhbatdoshingiz holati bye'etibor bo'lmasligi kyerak
7. Suhbatdoshingizga do'stona munosabatda bo'lish	7. Dushmanlik munosabati bo'lish, nafrat bilan qarash
8. "Xoxlaysizmi" dyeb so'z bilan boshlang	8. "Myen istardimki" dyemang
9. "Muammoingiz shundan iboratki" dyeb ayting	9. "Myen shunday xulosaga kyeldim"
10. "Sizga bu narsani bilish shunisi bilan kizik-ki..."	10. "Bu myen uchun kizik", - dyemang
11. Albatta bu sizga ma'lum..."	11. "Siz albatta bu hakda bilmaysiz..."
12. Siz bilan suhbatdoshingiz kyelishi uchun sharoit yaratish kyerakki, biz unda «Ha» dyeb	12. "Yo'q" dyeb javob byeradigan savollar byermang

javob byerishga moyillik vujudga kyelsin	
13. Suhbatdoshingiz fikrlarini aniqlashtirib, o'zingiz tushunchangizni ma'lum qiling	13. Hammasi shundoq ham tushunarli dyegan xayolga bormang
14. Murosa qilish uchun eng xolis yo'l topish	14. Sub'yektiv baxo va myezonlarni qo'llash

IV. Muammoli vaziyatni qanday bartaraf qilish kyerak. Rahbarlik faoliyatida juda ko'p muammolar uchrab turadi. Bu muammolarni tyez xal qila olmaslik rahbarda o'ziga ishonch hissining yo'kolishiga olib kyeladi. Bu holda o'zingizda fikrlashni shakllantiring. Bu fikrlar faqat ijobiy bo'lishi kyerak. Muammo va qiyinchilik oldida tuxtamang. Har bir voqyeada va har bir insonda ijobiy va salbiy xislatlar bo'lishi tabiiy. Inson hayotida voqyealar unga bog'liq bo'lmagan tarzda sodir bo'ladi, faqat inson unga ijobiy yoki salbiy baxo byeradi. Bundan tashkari, ko'p narsa o'sha vaqtdagi kayfiyatimizga ham bog'liq; aynan bir xil narsa bir vaqtning o'zida ham salbiy va ijobiy baxolanishi mumkin. Shuning uchun o'zgaruvchan kayfiyatga byerilmaslik kyerak. Odamlarda faqat ijobiy va salbiy sifatlarini ajratmay, ulardagi kamchiliklarni ko'ribgina kolmay, balki, ularning fazilatlarini ham ko'rishga o'rganing. Bu narsani amalda isbotlang. Agar siz faqat yomon tomonlarni ko'ravyersangiz, boshi byerk ko'chaga kirib qolasiz. Agar siz oson bo'lmagan vaziyatda yaxshilik tomon intilsangiz, har qanday sharoitdan chiqib kyeta olasiz. Ijobiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishni inson o'zidan boshlashi kyerak. O'ziga ishonmagan, o'zini hurmat qilmagan, o'zini hodimlarining o'rniga quyib qo'rmagan kishi rahbar bo'lib ishlay olmaydi. U o'z-o'zidan norozi bo'lib, alamini boshqalardan olishga intnladi. Aksincha, agar inson o'zining shaxsiy sifatleri va ish qobiliyatini ijobiy

baxolay bilsa, ishda bo‘ladigan har qanday qiyinchilikni yengishga harakat qiladi, nyegaki, u o‘ziga ishonadi, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baxolay oladi. Bu narsa hodimlariga va hamkasblariga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

O‘zi anglamagan holda unda qo‘yidagi fikr tug‘iladi: "Myen o‘zimni ijobiy baxolay olganim uchun o‘zimga ishonaman. Myen syenga ham ishonaman, chunki, syeningt ijobiy tomonlaringni ham bilaman. Shuning uchun ikkalamiz bu ishni bajara olamiz, hammasi yaxshi bo‘ladi".

Endi muammoli vaziyatlardan chikish uchun bir nyecha mashklarni bajarib ko‘ramiz.

"Muammo" mashqi bu mashq muammoli vaziyatni inson uchun shaxsiy ahamiyatini kamaytirib, ichki hotirjamlikni orttirish uchun xizmat qiladi. Siz 10-15 daqiqa davomida bu mashqni bajarib ko‘ring. Ko‘zingizni yuming. Quyidagi manzaralarni tasavvur qilib ko‘ring. Oxirgi vaqtda qiynayotgan muammolar haqida o‘ylang. Xayolan ularni ikki, uch ibora bilan ifodalang. O‘z muammolaringiz bilan o‘rtoqlashgan shaxsning qiyofasini ko‘z oldingizga kyeltiring. U sizga nima dyedi, siz unga nima javob byerganingizni eslab ko‘ring. Bu suhbat jarayonida tashqaridan kuzatuv sifatida qarang. Masalan, siz o‘z suhbatdoshingizni go‘yo oynada ko‘rgandyek tasavvur qiling. Bu manzaraga yakin qo‘shnilaringiz, tanishlaringiz ya’ni qarindoshlaringizni kiriting. Ularning yechilmagan qanday savollar va muammolari bor? Ularni nima qiynayapti, xayotda ular qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishlari kyerak? Yashayotgan uyingiz, siz bilan birga yashayotgan odamlarni tasavvur qiling. Tasavvur qilayotgan manzarangiz kyengayib borishi bilan, unga siz yashayotgan mamlakat, uning kishlok va shaxarlarini ko‘shing. Yana uzoqroqqa ko‘z tiking: quyosh sistyemasi, uning atrofida aylanayotgan, Yer galaktikasining byepoyonligi, yerda yashayotgan odamlarning muammolari, bu byepoyonlik oldida muammoingiz ham kichkina ekanligini tasavvur qiling. Endi holatingizga

byerilib, o'z muammolaringizni ikki-uch ibora bilan ifodalang. Siz endi nimalarni his qilyapsiz?

"Bundan ham battarroq bo'lishi mumkin" mashqi. Oq qog'oz olib kichik insho yozing. Hal qila olmagan xoh ishdagi, xox shaxsiy ishlaringizdagi voqyealarni qog'ozga tushuring. Endi voqyealarning siz uchun qanday yomon oqibatlarga olib kyelishini uylab ko'ring. Kasal bo'lib qolishingiz mumkinmi yoki yana bundan yomonrok nima bo'lishi mumkin? Siz hozir qanday yashayapsiz, ishlayapsiz? O'zingizni yaxshi xis qilyapsizmi? Muammolaringiz unchalik ko'rkinchli emas?. Ehtimol, bundan ham yomonroq bo'lishi mumkin. Dyemak, muammolarni hal qilsa, yashasa, kurashsa bo'ladi. Doimo sizni xayotda biror muammo kiynasa, bundan ham yomonrok bo'lishi mumkin dyeb tasavvur qiling. Xayotga ishonch va quvonch bilan qarang. Yashash qanday yaxshi.

2.3. Tadbirkorlik faoliyati motivasiyasining shakllarini aniqlash bo'yicha empirik natijalar tahlili

Insonda tadbirkorlik faoliyati motivasiyasining shakllanishi kasbiy faoliyat psixologiyasining shakllantirilishiga bog'liqdir. YA'ni, aynan tadbirkor psixologiyasi kasbiy faoliyati bilan byevosita bogliq bo'lgan psixologiya tarmog'idir. U juda kyeng va xilma-xil bo'lgan qiziqishlar spyektrga dahldor bo'lib, o'z ichiga suhbat o'tkazish va xodimlarni tanlash, ishlab-chiqarishga ish sharoitining ta'siri va ishchilarning psixologik salomatligi, mansabda o'sish, psixologik maslahatlar va turli kasblarga bo'lgan insonlarning xulq-atvor xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Odatda kasbiy faoliyat psixologiyasini ishlab-chiqarish bilan bog'lashadi, lyekin bu sohadagi mutaxassislarni boshqa tashkilotlarda ham uchratish mumkindir.

Tadbirkorlar xo'jalik xavf-xatarlari bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy maqsadga erishishning original, noan'anaviy usullarini topmoqlari va ularni amalga oshirmoklari darkor. V.I. Dalyu fikriga ko'ra, tadbirkor «yirik aylanma mablag'iga ega bo'lgan korxonani boshqarishga moyil bo'lgan, qobiliyatli, qat'iy, botir va jasur inson bo'lmog'i kyerak». SHu bilan birga, Dalyu: «Mulohazasiz tadbirkorlik xavfli», dyeya ogoxlantiradi. YOsh tadbirkor uchun yangilikka moyil bo'lish, maqsadga erishishda original yo'lni tanlash, ishchanlik va xo'jalik yuritishni bilish, qat'iylik va ixtirochilik qobiliyati, barcha imkoniyatlardan yuksak darajada foydalanishga qaratilgan maqsad kabi sifat ko'rsatkichlari bo'lishi lozim.

